

## J. MURATBAEVNING “SHEJIRENING SHIBIG’I” HIKOYASINING MAZMUNI, UNING XALQ TARIXIDAGI HISSASI

*Aldongarova Shamshirak Abdigapbar qizi*

*O’zFA, Qoraqalpog’iston bo’limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada qoraqalpoq xalq yozuvchisi Jubatqan Muratbaev hayoti va ijodi haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Yozuvchining “Shejirening shibig’i” hikoyasining janrlilik va o’ziga xos xususiyatlari so’z etiladi.*

**Kalit so’zlar:** *J. Muratbaev hayoti va ijodi, Qizilqum dala’si, urf-odat, shejire, Ayperi obrazi*

Insoniyat bor ekan, hayot turli hil sarguzashtlar, hodislar bilan davom eta beradi. Hammaning ham hayotta o’z hikoyasi bor. Aslida hikoya deganimizning o’zi nima? “Hikoya-bir yoki birlashib ketgan bir nechta voqeani qisqa so’zlab berish. 7-8 betdan oshmasligi kerak, ammo yuz betdan oshiq hikoyalar ham uchraydi, hikoyada bitta so’zni qo’shib yoki olib tashlash mumkun emas. Hikoya bir voqeani bitta insonga aytib berish uchun payda bo’lgan, chuning uchun ham bunda syujet va kompozitsiya birlashib, iqchamlanib olinadi” (1,194). Taniqli insonlar, mashhur adabiyotshunoslar adabiyotga, o’zi tanlagan yo’nalishga o’ziga xos takrorlanmas yo’li, qo’lyozmasi bilan keladilar. Mashhur yozuvchi, Qoraqalpog’iston Respublikasiga xizmati ko’rsatgan madaniyat xizmatkori, veterinariya fanlari kandidati, yozuvchilar uyushmasi a’zosi Jubatqan Muratbaev ham qoraqalpoq adabiyotiga 1980 yillari «Jesir» (1980), «Baxt yo’li» (1981), «Tan’ juldizi» (1983) proza janridagi to’plamlari, keyinroq 1990-yillari «Dig’irliq» (1990), «Shejirening shibig’i» (1991), «Aytalmay ketdi» (1992), «Aqquga o’q darimaydi» (1993) kabi povest, hikoyalar va romanlari bilan o’z hissasini qo’shgan. (2, 139)

Yozuvchining qaysi ijodini qarasak ham uning o’ziga xos tematikasi, xususiyatlari juda ham yuqori saviyada yozilganini ko’rishimiz mumkin. U o’z hikoyalarida har bir qahramonning tashqi ko’rinishidan tortib to ishki dunyoqarashlarigacha e’tibor beradi. Bu albatta o’quvchini yanada qiziqtiradi. Hikoyalarida real hayotda bo’ladigan insonning bu hayotdagi kechinmalari, tashvishlar, quvonchlar va ularga qahramonlarning emotsiyalarigacha har bir detalga e’tibor beradilar.

Biz so’z etmoqchi bo’lgan hikoya “Shejirening shibig’i” (shejire-key.shajara deb yuritiladi-Sh.A) deb nomlangan. Bunda yozuvchi o’z hayotida ko’rgan hayotiy voqeani so’zlaydi. Qizilqum dala’sida chorvachilik bilan kun kechirayotgan tinch-

totuv xalqning o'g'lini uylandirish arafasidagi qiziqlar, voqealar, undagi xalq tarixining realligi so'z etiladi.

En avval “shejire” deganimizning o'zi nima?-degan savolga javob bersak.

“Shejire-tarixiy voqea, hodisa. Ko'rsen'ler xaliqtin' shejiresin, Esit shejirenin' ma'nisin, Ba'rshenin' ata-babasin Aytib bayan qilg'an eken (Berdaq)” [3, 523].

Hikoyaning mazmuni qoraqalpoq, qozoq xalqlarida bitta uruvdan yetti otagacha quda-andachilik rishtalarini bog'lamaymiz, agar unday bo'lgan holda ham ularning bola ko'rishi, baxtli bo'lishi amrimahol degan tushunchaga quriladi. Bundan maqsad esa, qonning tozaligini saqlash, kelajak avlodning sog'lom bo'lishi.

Hikoya Qizilqum dala'sida yosh kelinni olib qochib kelib, qizning uyidagilar kelguncha, yosh kelinni xalqqa tanishtirib betashar (kelin salom-Sh.A) dasturi bo'layotgan vaqtdan boshlanadi. Kelinni olib qochib kelgandan keyin, uning aka-yangalari izidan ta'pberdiga (qozoqlarda qug'inchi deyiladi-Sh. A) kelishadi. Bu xolat hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.

“Betin'di kelin ashqanim

Jan'a jurta qosqanim” [4, 108]-deya, bet ochuvchi yigit qo'lga dombirasini olib, yaxshi kayfiyatda boshlayotgan bir vaqtda, katta tezlikdagi ikkita mashina uy oldiga kelib to'xtab, hammaning diqqatini o'ziga qaratadi. Ichidan oq ro'molini o'ragan, jahl otiga mingan kampir, beti ochiloyatgan kelinni boshidan ro'molini yulib oladi. “Arvoh urg'ir...sorli! Qurqiltayning uyasiday uyating yo'q. kim bilan oila qurmoqchiligingni hech bo'lmasa onanga bir og'iz aytsang bo'lardi-ku! Shunda buncha xalqqa sharmanda bo'lmasding. Tush oldimga-deb yuziga tarsaki tushiradi. To'satdan paydo bo'lgan kampirga hamma hayron bo'lib, atrof jim-jit bo'lib qoladi. To'y boshqarib yurgan yoshi katta bir kishi kampirni yoniga borib, “Quda xola, qizi qochib ketgan ona bo'tasidan ayrilgan tuyaday bo'zlaydi. Jahl-dovul, sabr-quyosh. Sabr qiling! Yaxshi niyat bilan oila qurgan qizingizning to'yida ko'ngillarni qabartmang. Yuring, yaxshi niyatning izzatli dasturini unutmangimiz yo'q, hurmat-izzatimizni ko'ring,-deya aqlga chaqirdi” [4, 109]

Mana, bu yerda yozuvchi voqeani juda ham yaxshi yetkazib beradi. Jahl otiga mingan kampir, tasalli bergan oqsoqol, hechnarsaga tushunmay qolgan to'yga yig'ilgan olomon. Hamma voqea ko'z oldimizdan shunday yorqin, tanish xolatda o'tadi. Real hayotda qiziga zarracha ham yomonlik tilamaydigan onaning bunaqa achchiq gaplari, voqea kuzatuvchisini ham, o'quvchisini ham unga bo'lgan nafratini uyg'otadi. Ammo, Ona baribir Ona da. Nima-ki, u o'z qiziga yaxshilikni ravo ko'rib shunday qattiq gapirayabdi.

Davomini kuzataylik-chi... “Qudam-Esemurat, qudag'ayim-Xurliman. Qani oldimga kelinglar,-deya baqirdi. Qo'rqib ketgan ikkalasi kampirning qo'l uchidan salomlashdi-da, o'zlarini chetga olib turdi. –Ha, ha, sizlar meni aljigan miston yoshlarning quvonchini buzdi deb turibsizlarmi. Hayotning qiyin bir paytlarida o'z

boshimizni ga'mini yeb, ota-onadan erta ayrilib, bosh omonligini tilab, bo'sib ketganmiz. Turmushning g'alma-g'ali bilan, bolalarimizga o'z yetti otasini, shajara tarixini o'rgatmadik. Hozirgi yoshlar ham faqat ismlarini, nima ish qilishini so'rashadi xolos. Yetti otaga yetmay uylanganlarning baxti bo'lmaydi. Nikohdan o'tgani bilan, er-xotin bo'la olishmaydi, ajratib yuboringlar [4, 109]-deydi. Bu kampir to'y egasi Esemuratning otasining ona tarafdan opasi edi.

Voqeaga guvoh bo'lgan Esemurat opasini ko'rib, quvonadi, mehmon qiladi. "Kim nima desa desin, bizni muxabbatimiz juda ham kuchli, og'ayinlarim oldida uyatga qolmaymiz"-degan ikki yosh oila qurishadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, el-xalqning gaplariga chiday olmagan ikkalasi boshqa shaharga ko'chib ketishadi. Albatta da, ota-ona roziligisiz turmush qurgan yoshlarni qaysi xalq, qaysi mahallada tinch yashatishsin. Achhiq bo'lsa ham turmush haqiqati shu! Shuncha yillik o'bro-e'tibor, milliy mentalitetimiz, ota-ona duosi qayerda qoldi?!

Voqeaning ikkinchi bir bo'limida esa oradan bir necha yillar o'tgandan keyingi holat bayon qilinadi. Bunda yozuvchi o'zi hikoya bosh qahramoni Ayperi bilan suhbatlashib, o'tgan voqealarni yana bir esga soladi.

Hikoyaning eng qiziq pallasiga yetib kelamiz va shajaraning qozoq, qoraqalpoq xalqlari hayotidagi mazmun-ma'nosini yana ham anglab, tushunib yetamiz. Oq ro'molli kampirning so'ziga quloq solmagan yoshlarning hayoti haqiqatdan yarashmaydilar. Ketma-ket bechta farzandi o'la bergach, ichkilikka solingan kuyov, axiri mast holidan ko'lga tushib, suvga cho'kib vafot etadi. Oraga vaqt solib, hamma narsani tushunib yetgan Ayperi bo'lsa dugonasining akasiga turmushga chiqadi va yonidagi og'il farzandi shu kishining bolasi bo'ladi. Yozuvchi bilan suhbatlashgan Ayperi hayotimga juda ham saboq bo'lgan bir narsani erimning akasidan so'rab-bilib, yozib oldim. U nima deysiz mi?-bu, shajara, bolamning yetti ajdodi, bu bola esa menga saboq bo'lgan Shajaraning shibig'i-deya hikoyani tamomlaydi.

Bu holat bugungi kunda ham juda ham dolzarb desak ham bo'ladi. Sababi, hozirgi yoshlar ham juda ko'p narsalarga e'tibor berishmaydi. Shajara tarixini bilish necha asrlardan buyon kelayotgan milliylikimizning bir ko'rinishi desak ham bo'ladi.

Ikki taraf kelishib, ota-onalar ro'zi bo'lib, el-xalqqa ataganini sohib, dang'I yeti mahallaga yetmasa bu bizning hisobda to'y emas-ku, axir! Tinch-osoyishta vatanimizga esa albatta, to'ylar yarashadi.

Yozuvchining hikoyasini o'qib o'tirib, juda teran o'yga tolasan, kishi. Har bir obrazni, detalni o'z o'rnida qo'llangan avtor hikoyasida hech zerikmaysiz. Undan oladigan saboq esa boshqa olam.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Mambetov "Adabiyot nazariyasi", No'kis, "Bilim" bosmasi-1995
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi yozuvchilari (Bibliografik ma'lumotlar). – Toshkent, EXTREMUM PRESS, 2011

3. “Qaraqalpaq xalqinin’ tu’sindirime so’zligi, V tom”-No’kis, Qaraqalpaqstan, 1992
4. J. Muratbaev “Aytalmay ketti” (povest va hikoyalar to’plami), “Qoraqalpog’iston” bosmasi-1992